

## SHE'RIYATNI YORITGAN NUR

*Choriyeva Shodiyona Bayramali qizi*  
*O'zbekiston Davlat jahon tillari universiteti*  
*Xorijiy til va adabiyoti fakulteti talabasi*  
+998934690903

**Annotatsiya:** Siz ushbu maqolani o'qish davomida serqirra ijodkor , o'zining dunyo qarashiga ega bo'lgan, umrini she'riyatga baxshida etgan , ajoyib she'rlarni mahorat bilan yozgan shoirning hayoti va ijod yo'li haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lasiz.

**Kalit so'zlar:** Dukchi eshon qo'zg'oloni , " mehr qolur " , " Lola" , Ellikqal'a, Mashrab, Bedil,

She'riyat olami o'zi bir ajib olam . Unda faqat she'rni his qila oladigan shoirlar yashay oladi. Shunday olamiga ega bo'lgan shoirlardan biri bu shubhasiz, Muhammad Yusufdir. Ham yoshlari , ham yoshi ulug' insonlar uchun birdek ardoqdadir. U inson haqida gapirilganda doim 'Lola" she'ri esga keladi. Undagi

Lola, lolajonim lolaqizg'aldoq nomli satrlari barchamizning qalbimizdan joy olgan. U inson haqida fikr yuritsak, U 1954-yil 26-aprelda Andijon viloyatining Marhamat (1898-yilda mashhur Dukchi eshon qo'zg'oloni bo'lib o'tgan Mingtепа) tumanidagi Qovunchi qishlog'ida oddiy zahmatkash odamlar oilasida tug'ildi. Mana shu qishloqda beg'ubor bolaligi, sho'x-shodon o'smirligi o'tdi.Yosh ijodkor 1978 – 1980-yillarda respublika “Kitobsevar lar” jamiyatida, 1980 – 1986-yillar oralig'ida “Toshkent oqshomi” gazetasida, 1986 – 1992-yillarda esa G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotida xizmat qiladi. Mana shu nashriyotda ishslash yillari Muhammad Yusufning ijodiy taqdirida muhim o'rinn tutdi. Zero, bu paytda mazkur dargohga zamonasi ning zabardast ijodkorlaridan biri Erkin Vohidov rahbarlik qilar, barcha bo'limlarda hukm surgan ijod ruhi yosh shoirning kamol topishiga ham jiddiy turtki bergandi. Garchi, uning she'rlari vaqtli matbuotda tez-tez chop etilib turgan bo'lsa-da, birinchi she'riy to'plami nisbatan kech – 1985-yildagina e'lon qilingandi. Shundan keyin shoirning “Bulbulga bir gapim bor” (1987), “Iltijo” (1988), “Uyqudagi qiz” (1989), “Halima enam allalari” (1989), “Ishq kemasi” (1990), “Ko'nglimda bir yor” (1990), “Bevafo ko'p ekan” (1991), “Yolg'onchi yor”, “Erka kiyik” (1992), “Osmonimga olib keta man” singari o'nlab she'riy majmualari o'quvchi qo'liga yetib kelgan. U shu qadar iste'dodli ediki , har bir she'ri insonning qalbiga malham bo'la oladi.

Yosh ijodkor 1978 – 1980-yillarda respublika “Kitobsevarlar” jamiyatida, 1980 – 1986-yillar oralig'ida “Toshkent oqshomi” gazetasida, 1986 – 1992-yillarda esa G'afur

G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyotida xizmat qiladi. Mana shu nashriyotda ishslash yillari Muhammad Yusufning ijodiy taqdirida muhim o'rinn tutdi. Zero, bu paytda mazkur dargohga zamonasining zabardast ijodkorlaridan biri Erkin Vohidov rahbarlik qilar, barcha bo'limlarda hukm surgan ijod ruhi yosh shoirning kamol topishiga ham jiddiy turtki bergandi.

### MEHR QOLUR

O'tar qancha yillar to'zoni,  
Yulduzlar – ko'zyoshi samoni.  
O'tar inson yaxshi-yomoni,  
Mehr qolur, muhabbat qolur.

Qorachug'da porlagan o'sha,  
Iqboliga chorlagan o'sha.  
Dunyoni tor aylagan o'sha  
Mehr qolur, muhabbat qolur.

Muhammad Yusuf Zahiriddin Muhammad Bobur, Shavkat Rahmon kabi 47 yil umr ko'rgan. Shoir taxallusini Tohir Malik qo'ygan. Tohir Malikga shoirning she'rlarini keltirishganida u iliq fikrlar bildiradi. "Ammo imzoni o'zgartiramiz, "Muhammad Yusupov" emas, "Muhammad" ham "Yusuf" ham Payg'ambarlarimizning ismlari. Ularga "ov" qo'shimchasini qo'shib, o'zimizdan begonalashtirmaylik" – deydi. Shundan buyon shoir Muhammad Yusuf taxallusi ostida ijod qiladi. Muhammad Yusuf kabi o'ta keng qamrovli, hissiyotlari va o'ylari chuqur shoir o'limini bir narsagina — undan meros qolgan va shubhasiz, o'zbek she'riyati rivojiga samarali ta'sir ko'rsatuvchi she'rlarigina yupatadi.

Chinakam shoirning qalbida sohir qush doimo sayrab turadi, degan gapni ko'p bora eshitgandik. O'sha qush aynan Muhammadjon yuragiga oshyon qurbaniga men astoydil ishonganman Uning ko'zлari ham, chehrasi ham hamisha latif bir honish qilganday edi.

Abdulla Oripov (O'zbekiston qahramoni)

Shoirning "Samarqandga borsam men agar" she'ri Muhammad Yusuf tushida oppoq kiyangan bir nuroniy qariyani ko'rgan kuni – tongda dunyoga kelgan. Muhammad Yusuf vaqtini ko'p kitob o'qishga sarflagan. U Bobur, Mashrab, Bedilni sevib mutolaa qilar edi. Anna Axmatova, Sergey Yesenin kabi rus shoirlari va Abdulla Oripovni ko'p o'qir edi. Shoirning o'zi suhbatlardan birida "Men har yili, ko'pincha, bir she'rim ta'siri bilan yuraman. Bu yilgilaridan "Biz baxtli bo'lamiz, Xudo xohlasa..." degan she'rimni yoqtiraman" degan edi. Muhammad Yusuf 2001-yilning

31-iyulida Qoraqalpog‘istonning Ellikqal‘a tumanida, yuzlab muxlislar qarshisida she’r o‘qiyotgan paytda yurak xurujidan vafot etgan. Yuqori iste’dod egasi bo‘lgan buyuk shoir Muhammad Yusuf kabi insonlar haqiqiy she’riyat olamining durdonalaridir . Hech shubha yo‘qki ularni o‘rnini bosa oladigan shoirlar juda kam.

Berib o‘tilgan barcha ma’lumotlardan xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki, Muhammad Yusufdek buyuk va tafakkuri , dunyoqarashi keng bo‘lgan bir shoir sifatida tanishimizni va u insonning qalbni davolovchi she’rlari o‘qisangiz dardingiz o‘z -o‘zidan yo‘qolib qoladi. Bunday shoirlarning avlodi ekanligimizdan faxrlanib yashashimiz kerak .

### Foydalilanigan adabiyotlar

1. 8-sinf adabiyot darsligi . G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent – 2014 .129- 130- 131- betlar
2. <https://xabardor.uz/uz/x/477445>
3. <https://arboblar.uz/uz/people/mukhammad-yusuf>
4. [https://t.me/s/MUHAMMAD\\_Yusuf\\_Ijodi?before=627](https://t.me/s/MUHAMMAD_Yusuf_Ijodi?before=627)